

Faxriddin Abduvohidov

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrası dotsenti,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: faxriddin_uzdsmi@mail.ru*

O'ZBEK TEATR TANQIDCHILIGINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

Annotatsiya. Maqolada Jadid ma'rifatparvarlarining professional o'zbek teatrini tashkil etishdagi harakatlari, bu jarayonda milliy dramaturgiyadan keng foydalanilganligi hamda teatr tanqidchiligini shakllantirishdagi izlanishlari xususida so'z boradi

Kalit so'zlar: jadidlar, ma'rifatparvarlar, dramaturgiya, teatr tanqidchiligi, rejissura, aktyorlik mahorati, ma'rifiy tarbiya, badiiy talqin masalalari.

THE FORMATION AND DEVELOPMENT PROCESSES OF UZBEK THEATRE CRITICISM

Abstract. The article discusses the efforts of the Jadid Enlightenment to organize a professional Uzbek theater, the extensive use of national dramaturgy in this process, and their research into the formation of theater criticism.

Keywords: jadids, enlighteners, dramaturgy, theatrical criticism, directing, acting skills, educational upbringing, issues of artistic interpretation.

Jahon teatr tarixida teatr tanqidchiligi milliy teatr tashkil etilishi bilan bir vaqtda tug'ilgan. Rus teatr tanqidchiligining kelib chiqish tarixi ham xuddi shunday bo'lgan. XVIII asrning ikkinchi yarmida rus milliy teatrining tashkil topishi bilan aynan bir vaqtda rus teatr tanqidchiligi ham dunyoga keldi. Lekin o'zbek teatr tanqidchiligining boshlanishi Turkistondagi o'ziga xos sharoitlar asosida vujudga keldi. O'zbek teatr tanqidchiligi Yevropa usulidagi o'zbek milliy teatri yaratilmasdan ilgari vujudga keldi.

XIX asrning oxirigacha o'zbek yozma adabiyotida teatr tanqidchiligi mavjud bo'lmagan. Bu yo'nalishning tashkil topishiga, Turkistonni rus mustamlakasiga

aylantirilishi hamda Yevropa teatr san'ati bo'y ko'rsata boshlashi bilan bog'liq. Shu bois, XIX asrning boshlaridan o'lkada rus teatrlarining gastrollari boshlanishi bilan bir vaqtda rus teatr tanqidchiligi ham bo'y ko'rsata boshladi. Bu borada 1870-yildan boshlab o'lkada tashkil etilgan vaqtli matbuot ham jumladan, "Туркистанский курер", "Русский Туркестан", "Украина", "Среднеазиатская жизнь" kabi rus tilidagi gazetalar hamda 1871-yildan chiqqa boshlagan eski o'zbek yozuvidagi "Turkiston viloyati gazetasi", "Sadoyi Farg'ona", "Samarqand", "Hurriyat", "Oyna" kabi gazeta va jurnallar muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, o'zbek teatr tanqidchiligining shakllanishida "Turkiston viloyati gazetasi" hamda "Oyna" jurnalining o'rni alohida o'rin tutadi. Dastlab mazkur gazeta va jurnallarda rus va o'zbek ziyolilarining rus teatrlariga oid bo'lgan qarashlari, maqola va taqrizlari mahalliy tilda yoritilib boriladi. Bu esa o'zbek teatr tanqidchiligi to'g'risida tasavvurlarini shakllantirishga asos bo'ldi. "Jahon teatr tarixida teatr tanqidchiligi milliy teatrning barpo topishi bilan bir vaqtda tug'ilgan. Lekin o'zbek teatr tanqidchiligining boshlanishi Turkistondagi o'ziga xos shart-sharoitlar asosida vujudga keldi. O'zbek teatr tanqidchiligi Yevropa usulidagi o'zbek milliy teatr yaratilishidan ilgari tug'ildi" [1, 16-b]. Shu bois akademik M.Rahmonov o'zbek teatr tanqidchiligining kelib chiqish tarixini ikki davrga bo'lib o'rganish lozimligini taklif etadi. Xususan:

O'zbek milliy teatri tashkil topguncha bo'lgan davrda o'zbek teatr tanqidchiligining ilk qadamlari;

Yevropa usulidagi o'zbek milliy teatr yaratilgandan so'ng o'zbek teatri tanqidchiligining shakllanishi va rivojlanish jarayoni.

Birinchi davr o'zbek teatr tanqidchiligida o'zbek va boshqa xalqlar ziyolilarining Yevropa tipidagi teatr targ'ibotidagi olib borgan izlanishlarini o'z ichiga oladi. XIX asr oxirida boshlangan o'zbek teatr tanqidchiligining mana shunday targ'ibotchilik ishlari XX asr boshiga kelib Yevropa usulidagi yangi o'zbek milliy teatri yaratilishiga zamin hozirlab bordi va ulkan ahamiyat kasb etdi. Bu borada Ahmad Donish, Furqat, Xoji Muin, Shukrullo, Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxonov kabi o'zbek ziyolilari faol qatnashdilar. Dastavval, teatr

tanqidchiligi namunalari rus teatri spektakllariga yozilgan madhiyalar, odalar va maqtab yozilgan she'rlardan tashkil topdi. Bu hol Ahmad Donish va Furqat ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, o'zbek teatrini rivojlanishida, rus madaniyati, rus teatr san'ati bevosita rol o'ynaganidek, o'zbek teatr tanqidchiligining shakllanishida ham rus ziyolilarining ishtiroki sezilarli darajada kechdi. Rus va Yevropa san'ati va madaniyatini targ'ib etish va intilish istagi o'tgan asrning 1870–1890-yillarida samarali ijod qilgan Ahmad Donish va Furqat kabi demokratik shoirlarning ijodida yaqqol ko'zga tashlandi. Ular Yevropa teatri to'g'risida zavqlanib qalam tebratganda Yevropa teatrining o'ziga xosligi bilan Turkiston xalqini tanishtirishni maqsad qilgandi.

O'zbek teatr tanqidchiligining dastlabki shakllarini o'rganishda Furqatning 1890-yilning 11-oktyabrida "Turkiston viloyati" gazetasining 44-sonida bosilgan rus spektakliga bag'ishlangan "Suvorov" nomli she'riy taqrizi muhim ahamiyat kasb etadi. She'r mazmunan boy va hajman katta bo'lib, unda pyesaning to'liq mazmuni, g'oyasi, sahna qurilishlari batafsil tasvirlanadi. Buni rus spektakli to'g'risida o'zbek shoiri tomonidan birinchi marotaba she'r bilan yozilgan taqriz deyish mumkin. Furqatni "Suvorov" spektakliga yozgan birinchi taassurotlari o'quvchiga spektakl va uning dramaturgiyasi to'g'risida to'liq ma'lumot bera oladi. Furqatning yozib qoldirgan she'riy taqrizlari va yozma manbalaridan shuni anglash mumkinki, u madaniyat va san'atni yaxshi his qilgan va buni boshqalarga ham ulashishda, nafaqat o'zbek teatri, balki boshqa san'at turlarini rivoji yo'lida sobit qadam tashlagan, samarali mehnat qilgan ijodkorlardan hisoblanadi.

Furqat va Ahmad Donishlarning ilk ijod namunalarida o'zbek teatr tanqidchiligining bismilloi, spektaklga yozilgan taqrizlar bilan boshlandi. E'tiborlisi shundaki, Ahmad Donish, Furqatlarning dastlabki Yevropa teatrlariga, spektakllariga bag'ishlangan qarashlarda, asosan, ularning teatr va san'at saroylariga sahnaviy makoni, muhiti, me'morchiligi dekoratsion qurilmalariga, ssenografiyasiga bo'lgan hayratlari bilan boshlanadi.

XX asrning boshlariga kelib, xalqimizni Yevropa tipidagi teatr bilan tanisha boshlashi va uning o'ziga xos xususiyatlarini anglashida ulkan hissalarini qo'shgan,

ko'pgina o'zbek ziyolilari qatorida Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Mirmulla Shermuhammadov, Hoji Muhammad Zuhur kabi ma'rifatparvarlar ham samarali izlanishlar olib bordilar. Ularning fikr-mulohazalaridan professional Yevropa teatri bilan milliy an'anaviy o'zbek teatri o'rtasidagi tafovutni anglash va mazkur tafovutni bartaraf etishga intilish istagi mavjudligi sezilib turadi.

1914-yili "Sadoyi Turkiston" gazetasining 4-iyun sonida 16 yoshli Abdulhamid Cho'lponning "Adabiyot nadur?" nomli tanqidiy maqolasining nashr etilishi ko'plab turkistonlik ziyolilar o'rtasida muhim voqeaga aylandi. O'sha vaqtlarda adabiyot va uning jamiyat hayotidagi o'rni borasida qizg'in bahs va munozaralar kechayotgan bir pallada Cho'lponning bu boradagi qizg'in mulohazalari bu san'atning qanchalar jamiyat hayotida muhim ekanligini, mardonalarcha ta'kidlab o'tdi. "Adabiyot yashasa – millat yashar", "Adiblar yetishtirayluk, adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydin, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur" [2].

Yangi teatrning o'ziga xosligi, yutuq va kamchiliklari, uning olib borayotgan faoliyati, kishilik jamiyatida tutgan o'rni va ahamiyati borasidagi maqolalar vaqtli matbuotda birin-ketin bosila boshladi. 1914-yil 15-yanvarda Ali Asqarov sahnalashtirgan "Padarkush" va "Aldadik va aldandik" spektakllari xususida "Oyna" jurnalining 1-fevral sonida noma'lum muallif tomonidan yozilgan "Turkistonda birinchi milliy teatr" nomli maqolasi o'zbek spektakli haqida teatr tanqidchiligining birinchi namunasi deyish mumkin. Birinchi o'zbek dramasi yaratilishi va uning ko'plab sahnaviy talqinlari bevosita o'zbek milliy teatrining tug'ilishi bilan, o'zbek dramasi bag'ishlangan maqola va taqrizlarning bo'y ko'rsata boshlashi o'zbek teatr tanqidchiligining kelajagini belgilab berdi. "Shunday qilib, XX asrning ikkinchi o'n yilligidayoq o'zbek teatr tanqidchiligi jamiyat hayotida Yevropa teatrini targ'ib qilishda faol qatnashdi. Turkistonda Yevropa usulidagi yangi milliy teatrning shakllanishi yo'lida kurash olib boradi".

Yangi o'zbek teatri dunyoga kelguniga qadar aholi o'rtasida mana shunday targ'ibiy ishlar olib borish, dastlabki o'zbek teatr tanqidchiligi oldida turgan eng

sharafli vazifalardan biri edi. XIX asr oxirida boshlangan o'zbek teatr tanqidchiligining mana shu targ'ibotchilik harakati XX asr boshida Yevropa usulidagi yangi o'zbek teatri yaratilishida zamin hozirlab bordi va ijobiy rol o'ynadi.

1970–1990- yillarida Ahmad Donish (1827–1897) 1856, 1873, 1874-yillarda Buxoro amirligi elchilari safida Peterburgga qilgan safarida ko'rgan spektakl va konsertlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar beradi. U 1873–74-yilda Peterburgga tashrif buyurganda Fransiyadan kelgan opera ashulachisi Potiy nomli aktrisaning gastroli o'tayotgan edi. Ahmad Donish shu aktrisa qatnashgan bir konsertda bo'lgan. Bu to'g'risida quyidagilarni yozadi: "...uning qaddi-qomati kelishgan, husni jamoli yetilgan edi. U Parij parisi shunday yasanib-bezanib chiqar ediki, aql uning unsuriy jasadining nima ekanligini bila olmay hayronlikda qarab qolar edi. G'ayb olamidan kelgan farishtami yoki jasadlangan ruhmi deb o'ylar edilar".

"Nayrangxonaga kirib o'tirganimizdan so'ng nayrangxonaning pardasini ko'tardilar. Parda ko'tarilishi bilan ko'm-ko'k, sof, tiniq osmon ko'rinadi. Sharqiy, yoki g'arbiy tomonidan oy ham chiqib turgan bo'ladi. Panjara oldida yashnagan ko'katlar, ochilgan gullar ishq pechakdek bo'lib har tomondan osilib turadi. Shu orada havoda ko'ringan ayvon ichida gul va giyohlar oralab nihoyatda husn jamolli, oppoq kiyingan, oyoqlari tizzasigacha ochiq, qo'llari yelkalari bilan yalong'och, bo'yin-boshlari esa turli gullar, inju-marvaridlar bilan bezangan bir parizod chiqib keladi. Uning ikki yuzidan ikki to'lin oy yaltirab ko'rinadi. Lekin bu oylar parda ortiga qo'yilganidan o'zlari ko'rinmay, ularning nurlari ul gulandomga shu'la sochib turar edi. Mana shu zebi-ziynatlar bilan ko'rinib, ovozini turli kuylarga solib qo'shiq aytganda tomoshabinlar oh-voh sadolarini ko'tarib to'xtovsiz chapaklar chalar edilar", [3] deb ta'riflaydi.

Ahmad Donish Peterburgda ko'rgan balet spektakli nihoyatda go'zal o'ynalgani to'g'risida "...qizlar raqs-u samoga tushib o'ynadilar, shohsupa sahnani bir oyoqlab bir necha qayta aylandilar. Ikki oyog'ini juftlab olib charx urib, ikki gazcha yuqoriga ko'tarildilar. ... Ajabo, bu qanday nafis san'at va ulug' qudratki, inson tog'ining bulog'idan chiqqan bir qatra loyqa suvdan bunday ajoyib gullar bu qora tuproq ustida ochilmishdir" [3].

Ahmad Donish bu Yevropa teatri to'g'risida zavqlanib qalam tebratganda Yevropa teatrining badiiy fazilatlari bilan Turkiston xalqini tanishtirishni maqsad qilib olgan ko'rinadi. Shunisi xarakterliki, rus teatr tanqidchiligi ham xuddi shu yo'nalishda boshlangan edi. Chunonchi XVIII asrda boshlangan dastlabki rus teatr tanqidchiligi N.A.Rjevskiyning Liberi Sakki rahbarligidagi italyan teatri aktyorlari o'yinini maqtab yozgan she'ridan iborat edi. Sumarokovning Dmitrevskiy ijodiga bag'ishlangan madhiyasi ham teatr tanqidchiligining boshlang'ich shakllaridan hisoblanadi.

Rus san'atiga ixlos Furqatning 1890-yilning 11-oktyabrida "Turkiston viloyati gazetasi"ning 44-sonida bosilgan "Suvorov" nomli she'ri bilan boshlanadi. Bu she'rni o'z mazmunining boyligi va hajmining kattaligi jihatidan rus spektakliga bag'ishlangan qasida deb bo'lmaydi. Bunda pyesaning to'la mazmuni, g'oyasi, sahna ko'rinishlari batafsil tasvirlanadi. Buni rus spektakli to'g'risida o'zbek shoiri tomonidan birinchi marotaba she'r bilan yozilgan taqriz deyish mumkin. Furqat spektakl to'g'risidagi o'z mulohazalarini shunday boshlaydi: "Suvorovga muqallid bir tomosha erur, boshidan oyog'i hayrat afzo na ishkim qildi u o'tgan zamonda anga bo'ldi muqallid bul makonda", deb Suvorov to'g'risida yozilgan pyesani bul, "makonda", ya'ni teatrdan rus aktyorlari tomonidan "muqallid" qilinganini, ya'ni o'ynalganini hikoya qiladi va pyesaning to'la mazmunini bayon qiladi.

Furqat she'riy taqrizda spektaklda o'ynagan aktyorlarning nomlarini ko'rsatmaydi, lekin sahnada aktyorlar ijrosida ko'rgan ayrim obrazlarni to'g'ri xarakterlab beradi. Chunonchi aktyorlar ijrosidan olgan taassurotlariga tayangan holda shoir Suvorovning vatanparvar sifatida tasvirlaydi va shu bilan bir qatorda Napoleonning bosqinchilik harakatlarini qoralaydi.

Furqat tomonidan yozilgan Yevropa teatri va musiqa san'atining o'zbek tomoshabini o'rtasida targ'ib qilishni, ularni yangilikka chaqirishni ko'zda tutgan bo'lsa, ikkinchi tomondan royaldan ijro etilgan rus va g'arbiy Yevropa kompozitorlari asarlarini ma'nosiga tushunishi va musiqa tilini his etish o'zbeklar uchun ham dolzarb masala ekanligi keltirib o'tiladi. Uning o'zbek musiqa bilimidan xabardorligi, ikki xalqning musiqa madaniyati rivojida tafovutni to'g'ri his etganligi yorqin

ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari Furqat o'z o'rnida vokal va ijrochilik san'atiga ham munosib baho beradi. Chunonchi bir ayol ashulachi mahoratiga baho berarkan: "Maqomi qilur har nav bunyod, gohi qattiq fig'on, goh narmi faryod. Gohi naydek chiqar ohista nola, kelturur goh navo mashqin xayola. Ofarin ovozi to'ldi zalga. Tushtilar ham zavqnok ahvolga", – deb ta'riflaydi. Furqatning musiqaviy "слухи" o'tkirligi ham she'riy taqrizda o'z isbotini topadi. U ashulachining soz pardasidan chiqmay qilgan ijrosini ham munosib baholaydi. "Nag'mai ovoz ikov bir pardada, ya'ni savtu soz ikov bir pardada", – deb yozadi. Bu fikrlar o'z xalqining musiqa madaniyatini sevishi, kelajak rivoji haqida g'amxo'rlik va vatanparvarlikdan kelib chiqqanligi yaqqol sezilib turadi.

XX asr boshida Yevropa teatri ahamiyati to'g'risida Mahmudxo'ja Behbudiyning (1874–1919) 1914-yil 16-mayda "Oyna" jurnalida bosilgan "Teatr nadur?" nomli maqolasi o'zbek teatri rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Maqolada Behbudi shunday misralarni keltiradi: "Teatr ibratxonadur. Teatr va'zxonadur. Teatr ta'sir(i) adabdur. Teatr oynadurki, umumiy hollarni anda mujassam va namoyon suratda ko'zliklar ko'rib, va'z va tanbeh etuvchi hamda zararli odat, urf va taomilni, qabix va zararini aynan ko'rsatguvchidur", [3] deb yozadi. Shu bilan birga o'zbek milliy teatr san'atining tarbiyaviy-axloqiy, etik-estetik, ma'naviy-ma'rifiy, kerak bo'lsa, ijtimoiy-falsafiy tamoyillarini belgilab beradi.

Behbudi teatrni tomoshaviyligi haqida ham alohida to'xtalib "Ayni zamonda teatr ya'ni tomoshagoh, yoinki ko'ngul ochuvchi milliy va adabiy jamiyatlarning asosiysidir. Taraqqiy qilgan millatlar teatrionalarni ulug'lash uchun maktabiy adab va ibrat deb ataydilar. Taraqqiy qilmoqni eng birinchi sabab bo'islaridan biri teatr deyurlar. Teatriona sahnalarida quyulaturg'on asarlar fojia, ya'ni qayg'ulik, mazxara ya'ni kulgu, drama ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib xaloyiqqa ko'rsatilur. Ul voqeadagi yomonlik va yaxshilikni paydo bo'lgani va sababini har kim ko'rib, anglab, ibrat olur va yomonlikdan qochib, yaxshilikka harakat qilmoqqa teatrdagi ko'rsatilgan voqealar sabab bo'lur".

Behbudi o'z maqolasida teatrning janrlari, dramaturgiya, aktyor san'ati

to'g'risida, shuningdek Yevropa mamlakatlarida teatr san'atining taraqqiyoti va ularda aktyorlar tayyorlaydigan maxsus maktablar to'g'risida ham ma'lumotlar beradi.

1914-yilning 2-martida "Turkiston viloyati gazetasi"ning 29-sonida Munavvar qori Abdurashidxonovning teatr haqidagi maqolasi ham diqqatni tortadi. Muallifning yozishicha: "Hozirgacha teatrga mazxarabozlik deb qarab keldilar. Aslida teatr tarbiyaviy joydir. Teatr bir oynakdor xona bo'lib, bu xonaga kim kirsam o'z aksini ko'radir. Ya'ni o'z kamchilik va xatosini ko'rib undan ibrat oladirlar". Ushbu maqola yangi teatrning estetik xususiyat va vazifalarini belgilab berishga qaratilgan muhim vosita hisoblanadi.

"Turkiston viloyati gazetasi"ning 1912-yil 16-fevral sonida Olimxo'ja Turdixo'jayev nomli ulamo "Teatr shariatda yo'q, taqiqlansin deb yozadi. Shu gazetaning 1914-yil 13-mart 22-sonida "Musulmon" taxallusi bilan yozilgan maqolada Toshkentda birinchi spektakl o'ynalganda mutaassib ruhoniylarning teatr qo'yilishiga xalal berganlari ko'rsatib o'tilgan. Bu yillarda er va xotinlarning sahnaga chiqishi mumkinmi, yo'qmi degan masala ham jiddiy tortishuvlarga sabab bo'lgan. Ayrim gazetalarda, hatto xotinlar uchun alohida teatr ochilsin, ularni erkaklar bilan birga teatrdan o'tirishlari taqiqlansin degan fikrlari bayon qilinadi.

Bu xususda, ayniqsa, Behbudiy bilan Turkistonning eng zakiiy ulamolaridan Saydahmat Vasliy o'rtasidagi mafkuraviy kurash juda keskin kechadi. Vasliy Behbudiyning teatr haqidagi fikrlariga qarshi "Sadoyi Farg'ona" 1914-yil 83-sonida bosilgan "Shariat islomiya" maqolasida va "Oyna" jurnaliga yo'llagan maktubida (1915-yil, 7-son) "teatr anvoiy o'yin, la'biyot va haromdir", degan fikrlarini bayon etadi.

Behbudiy Vasliyning "Shariat islomiya" maqolasiga javoban "Oyna" jurnalining 1915-yil 5-sonida "Teatr, musiqa, she'r" maqolasini e'lon qiladi, unda mudarris janoblaridan "har nov la'biyot va o'yin harom degan so'zlaridan munozaraga borib Vasliyning fikrlarini hadis, diniy rivoyat va payg'ambarimiz hayotlaridan iqtiboslar keltirib inkor etadi" [4, 97-b].

Teatr haqidagi ziddiyatli kurashlar yigirmanchi yillarning boshlarida ham

davom etdi. Cho'lpon o'zining "Adabiyot nadur?" maqolasida teatrning ko'ngilxushlik joy bo'lgani uchun harom sanagan ruhoniylardan teatrni himoya qilib, "chapga aylansa kofirlik, o'ngga burilsa dinsizlik ta'naga yo'liqib, din talqin qiluvchi dinsizlarning har turli hujumlari ostida nodonlarning changalidan xalqni qutqazib olmoqqa tirishqon teatrdur", – deb yozadi.

Umuman olganda, yangi o'zbek teatrining tashkil topishi va o'zbek teatr tanqidchiligining shakllanish va rivojlanish davridagi asosiy vazifasi Yevropa teatrining tarbiyaviy rolini, uning badiiy va estetik ahamiyatini targ'ib qilish va shariat peshvolari va ruhoniylarining xurujlariga qarshi kurashdan iborat bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *Rahmonov M. O'zbek teatr tanqidchiligi tarixi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at. 2016. – 16-b.*
2. *Tursunboyev S. Teatr tarixi. – Toshkent: Bilim, 2005.*
3. *Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. 1-tom.*
4. *Rizayev Sh. Jadid dramaturgiyasi. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1997. – 97-b.*

